Abstract: This article addresses the selection of highly artistic works from modern Uzbek literature for study in literature classes at general secondary schools. Such works aim to cultivate respect and reverence for esteemed national writers, while encouraging students to develop independent and critical attitudes toward the texts they study, rather than relying on ready-made interpretations. The paper discusses the analysis of literary works chosen for textbooks, approaches to fostering reading culture within the framework of national literary education, and factors that inspire students' interest in reading masterpieces in the state language. Particular emphasis is placed on the three key criteria for selecting works: high artistic value, social significance, and the ability to evoke genuine intellectual and emotional satisfaction in the reader.

Key words: textbook, curriculum, didactics, literary education, style, genre, artistic interpretation.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы отбора высокохудожественных произведений из новой узбекской литературы для изучения на уроках литературы в общеобразовательных школах. Через такие произведения формируется уважение и почтение к народным писателям, а также внимание к воспитанию у учащихся самостоятельного и критического отношения к изучаемым произведениям, отказ от готовых интерпретаций и работа на основе вопросов и заданий. Анализируется выбор произведений для школьных учебников литературы, подходы к развитию читательской активности учащихся в национальном опыте литературного образования, факторы, пробуждающие интерес к чтению выдающихся произведений на государственном языке. Особое внимание уделено трем основным критериям отбора произведений – высокой художественной ценности, социальной значимости и способности вызывать у читателя духовное наслаждение.

Ключевые слова: учебник, программа, дидактика, литературное образование, стиль, жанр, художественная интерпретация.

KIRISH

Bugungi zamonaviy adabiy ta'lim o'quvchini shunchaki mutolaa kishisidan o'zining tafakkur doirasi mahsulini ifodalay oladigan kitobxon darajasiga ko'tarishni taqozo qilmoqda. Ayni masalaning g'arb va sharq olimlari qarashlari asosida tahlil qilinishi, asar tanlash tushunchasining nazariy asoslarini ilk marotaba tajriba-sinov sifatida umumiy o'rta ta'lim adabiyot darsliklari misolida o'rganish, o'qitishning an'anaviy usullaridan chekinib, asar tanlash mezonlarini ishlab chiqish ham ishning yana bir zarurati va dolzarbligini ko'rsatadi. Mavzuning maqsadi umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot darsliklari uchun asar tanlashga oid nazariy bilimlarni umimlashtirish, tahlil va tadqiq etish, kitobxonlikni rivojlantirishga doir metodlar, o'qitish usullari, vositalari va shakllar tizimini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilab olindi: xorij va o'zbek olimlarining zamonaviy

asar tanlashga doir ilmiy-nazariy qarashlarini tahlil etish, umumlashtirish, tasniflash; adabiyot darsliklari uchun tanlangan asarlarni tahlil qilish.

Mavzuning obyekti umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-11-sinf o'quvchilaridir. Tadqiqotning predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun badiiy yuksak zamonaviy asarlarni tanlash, o'quvchilarda kitobxonlikni rivojlantirishga doir yondashuvlarning milliy adabiy ta'lim tajribasida o'rganish, tahlil va tadqiq etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Darsliklar uchun asar tanlashdagi muammolar va uning pedagogik, didaktik asoslari haqida rus tadqiqotchilari N.A. Demidova, T.F. Kurdyumova, V.P. Polonskiy, G.I. Belenkiylar ilmiy ishlar olib borgan. Bundan tashqari, adabiy ta'lim metodikasi bo'yicha yirik mutaxassis V.G. Marantsman asar tanlashda o'quvchining yosh psixologiyasi va adabiy-estetik qabul qilish qobiliyatiga alohida urg'u bergan. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasida esa B. Qosimov, K. Yo'ldoshev, M. Jo'rayev, Q. Yo'ldoshev va R. Niyozmetovalar darsliklar mazmuni bo'yicha bir qator asarlar yozgan. Xususan, Karim Yo'ldoshevning ta'lim konsepsiyasi o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda asar tanloving muhimligini ta'kidlaydi, bunda adabiy asarning estetik, axloqiy va ma'naviy-ma'rifiy qiymati hisobga olinadi. Ushbu maqolada esa darsliklar uchun zamonaviy asarlarni qanday mezonlarga ko'ra tanlash haqida bahs yuritiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozishda empirik usullar (pedagogik kuzatish, suhbat, baholash); sharhlovchi tadqiqot (tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, amaliy tajriba, empirik material, sintez); pedagogik eksperiment (eksperimental o'qitish, tavsiya etilgan metodikaning samaradorligini tekshirish, natijalarni matematik-statistik qayta ishlash) usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uzoq yillardan beri badiiy asar mutolaasi va tahlili an'anaviy estetik tamoyilga asoslangan. Adabiyot darsliklarida keltirilgan badiiy asarlar yoki ulardan olingan parchalar tahlili o'quvchi e'tiboriga tayyor holda havola etilgan. Ta'lim mazmunidan badiiy jihatdan yuksak, pishiq asarlar joy olishi zarurligi shubhasiz bo'lgani holda, adiblar ham hisobga olinishi lozim. Zero, asari orqali taniqli adibni anglagan, bilgan, unga nisbatan o'zida hurmat hissini tuygan, tegishli mutolaa ko'nikmalariga ega bo'lgan o'quvchi keyinroq boshqa taniqli yozuvchi yoki shoirga qiziqish tug'ilganda uning asari bilan tanishish yo'lini tanlaydi. O'quvchilarning o'zbek adabiyoti haqida yetarli tasavvur hosil qilishlari, atoqli adiblar yaratgan nodir asarlari, o'zbek xalqining tarixi, madaniyati, milliy qadriyatlari, milliy ma'naviyati, urf-odatlari, adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tushunchaga ega bo'lishlari ham tanlanadigan asarlar majmuasiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, milliy adabiyotlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda, aniq milliylik orqali namoyon bo'ladigan umumiy baynalminal mazmun ham mavjud. Tanlanayotgan asarlarning bu jihati ularning mazmunini tushunishni osonlashtiradi. Ehtimol, dastlabki kezlarda, aniqsa quyi sinflarda, ko'proq ana shunday mushtarak asarlarni ajratish ma'quldir. Chunki o'zbek bo'lmagan kitobxon o'zbek adabiyoti asarlarini o'rganishda o'z badiiy idroki tajribasiga asoslanadi va o'z milliy adabiyoti nuqtayi nazaridan qaraydi. Asar mazmunini tushunish ana shunday murakkablashgan vaziyatlarda amalga oshadi.

Ayniqsa, bugungi integratsiyalashuv va globallashuv davrida ulg'ayotgan o'quvchi uchun tayyor talqinlar uni adabiyotdan bezdiradi. Zotan, badiiy adabiyot namunasi o'quvchi tomonidan to'liq his etilib, anglanib, nafis adabiyotning sehr-u jozibasidan atroflicha xabardor bo'lingandagina ta'sirchan estetik-ma'naviy energiyaga aylanadi. His etilmagan, anglanmagan go'zallik ma'naviyat shakllanishiga xizmat qila olmaydi. Shuning uchun ham adabiyot o'qitishda badiiy asar tahlili alohida mavqega egadir [Yo'ldoshev Q. 1996: 68]. Asar tanlash masalasiga monografik yondashilganligi nuqtayi nazaridan muhim va dolzarbdir. Bugungi zamonaviy adabiy ta'lim o'quvchini shunchaki mutolaa kishisidan o'z tafakkur doirasi mahsulini ifodalay oladigan kitobxon darajasiga ko'tarishni taqozo qilmoqda. Ayni masalaning G'arb va Sharq olimlari qarashlari asosida tahlil qilinishi, asar tanlash tushunchasining nazariy asoslarini ilk marotaba tajriba-sinov sifatida umumo'rta ta'lim adabiyot darsliklari misolida o'rganish, o'qitishning an'anaviy usullaridan chekinib, asar tanlash mezonlarini ishlab chiqish ham ishning zarurati va dolzarbligini ko'rsatadi. Badiiy asarlarni tanlashga oid qarashlarni milliy adabiy ta'lim jarayonlariga tatbiq etish, muayyan xulosalar chiqarish va tavsiyalar ishlab chiqish ham bugunning eng muhim vazifalaridandir.

Alohida ta'kidlash lozimki, adabiyotning ta'sir kuchi va maxsus xususiyatlari qadim-qadimdan yaxshi ma'lum bo'lgan. Bu haqda, jumladan, Aristotel shunday deydi: "Aslida asar shunday yozilishi kerakki, u sahnada ko'rilmaganida ham, bo'lib o'tadigan voqeani tinglovchi har bir kishi, xuddi Edip haqidagi rivoyatni tinglaganday,



hodisalarning o'sib borishidan g'am chekuvchiga nisbatan o'zida hamdardlik sezsin va vujudi jivirlab seskansin" [Aristotel 1980: 28].

Odatda adabiyot kursi uchun asar tanlashda notanish so'z va til hodisalarining ko'p bo'lishi darslik mualliflarini matnni qisqartirishga, boshqacha aytganda, adaptatsiyalashga undaydi. Badiiy asarlarni adaptatsiyalash bilan pedagogik matnshunoslik shug'ullanadi. U darsliklarda va o'quv qo'llanmalarida badiiy matnlarni pedagogik jihatdan taqdim etish prinsip va texnikasini ishlab chiqish ustida ish olib boradi. O'quvchilarni ortiqcha psixologik bosimdan xalos qilish uchun asarlarni adaptatsiya qilish yo'lidan borish ham yaxshi natija beradi. Umuman, badiiy asarni qisqartirish va uni adaptatsiyalash nihoyatda ustalik bilan amalga oshirilishi lozim; pedagogik jihatdan, emotsional-ekspressivlik jihatidan ahamiyatli o'rinlar mumkin bo'lgan darajada qisqarib ketmasligi zarur.

Aristotel o'zining "Poetika" asaridayoq badiiy asarning mukammalligi haqidagi gapirib, badiiy asarning "muayyan hajmga ega bo'lgan, tugal va bir butun voqeaning tasviri ekanligini" ko'rsatadi. U yozadi: "Yaxlit narsa ibtidosi, o'rtasi va intihosi bo'lgan narsadir. Ibtidoboshqa narsaning ketidan kelishi zarur bo'lmagan, aksincha, tabiat qonuniga ko'ra orqasidan nimadir keluvchi yoxud sodir bo'luvchi narsadir; intiho esa zaruriyat tufayli yoxud odatga ko'ra albatta boshqa narsa ketidan keluvchi narsadir; undan keyin esa hech narsa bo'lmaydi; o'rta esa o'zi va boshqa narsaning ketidan keluvchi va uning ketidan ham boshqa narsaning kelishiga asoslangan" [Aristotel 1980: 19]. Buning ustiga, badiiy asarni umumiy holatda rivoyat deb olgan Aristotel o'z xulosasida ham nihoyatda e'tiborli fikrni aytadi: "Shunday qilib, yaxshi tuzilgan rivoyatlar duch kelgan joydan boshlanib, yana duch kelgan joyda tugamasligi, balki ko'rsatilgan qoidalar asosida bo'lishi lozim" [Aristotel 1980: 19].

Aristotel "Poetika"sida adaptatsiya qilish haqidagi eng muhim qonuniyat – qismlar orasidagi mantiqiy aloqadorlik borasida alohida fikrlar bayon etilgan:

"Voqealarning qismlari, – deb yozadi u, – shunday joylashtirilishi lozimki, biron qism almashtirilganda yoki olib tashlanganda yaxlit narsa o'zgarib ketsin yoki harakatga kelsin, chunki mavjudligi yoki mavjud emasligi sezilmayotgan narsa butunning uzviy qismi bo'la olmaydi" [Aristotel 1980: 21]. Tanlangan asarlarni adabiy o'qish kursida qay tarzda guruhlash kerakligi masalasi ham muhim ahamiyatga ega. V.A. Nikolskiy guruhlashga uch xil yo'lidan borish kerakligini ko'rsatadi: bir janrdagi asarlarni yonma-yon qo'yish; mavzu jihatidan bir-biriga yaqin asarlarni tanlash; nihoyat, asarlarni xronologik tartibda joylashtirish [Nikolskiy 1971: 78].

Adabiy o'qish dasturini tuzish haqida boshqacha fikrlar ham mavjud: bunday dastur tuzish san'ati salbiy tipdan keyin ijobiyini, feodal yer egasidan so'ng dehqonni, tuban kishidan keyin qahramonni, povestdan so'ng romanni, balladadan keyin poemani, she'rdan so'ng prozani berishga borib taqaladi. Asar tanlashda she'riyatga ham juda katta e'tibor berish kerak. She'rda shoirming shaxsiy kayfiyati, umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan bo'ladi. Shuning uchun ham she'rdagi ohang yoki kayfiyatning davr bilan hamohangligiga ham diqqat qilinadi. Bayon etilgan fikrlarni umumlashtirib, asar tanlashning quyidagi prinsiplariga diqqatni qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- o'rganish uchun tanlangan asar o'quvchilarning tanlaydigan kasblari bilan bog'liqligi, qiziqishlariga mos kelishiga e'tibor berish;
- asar mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar o'quvchiga tushunarli bo'lishi;
- ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega asarni tanlash;
- asar qahramonlarining ruhiyati va xarakterini o'quvchi tasavvur hamda his qila olishi;
- tanlanadigan asar til jihatidan tushunarli bo'lishi yoki o'quvchida tushunish bilan bog'liq ko'plab qiyinchiliklar tug'dirmasligi. Asar tilining hozirgi adabiy til me'yorlariga yaqin bo'lishiga e'tibor berish;
- tanlangan asar badiiy jihatdan yuksak bo'lmog'i, o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsata oladigan, uning badiiy didini tarbiyalashga, ma'naviy yuksaltirishga xizmat qiladigan bo'lishi;
- mavzu va janrlari xilma-xil, uslubi rang-barang asarlarni tanlashga e'tibor berish;
- o'quvchi yoshiga mos, hajmi jihatidan juda katta bo'lmagan asarlarni mo'ljallash;
- qardosh va jahon adabiyoti namunalari bilan qiyoslab o'rganish imkonini beruvchi asarlarni tanlash.

Shunday qilib, o'zbek adabiyotini o'qitish mazmunini belgilashda adabiy tayyorgarlikni ko'zda tutgan holda asar tanlash ishlarini amalga oshirish, buning uchun bugungi kunda jamiyatimiz tomonidan e'tirof etilgan badiiy yuksak parchalarni ajratish, bunda asarning hajmi, notanish so'zlarining miqdori, unda so'z qo'llanishi, tanlanadigan parchaning mavzu va janr rang-barangligiga erishish darkor. Asar tanlashda qahramonlik, dramatik, romantik, tanqidiy yo'nalishdagi asarlarga ham e'tibor berish talab etiladi. Bular orasida muayyan nisbat ta'minlanishi lozim.

Asar tanlashda uning axloqiy tarbiya maqsadlariga muvofiqligi ham nazarda tutilishi kerak. Metodist olim O. Musurmonova ta'kidlaganidek, "Milliy adabiyot har bir millatning xarakteri, his-tuyg'ulari, turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti bosqichlarini haqqoniy chiziqlarda badiiy ifodalaydi" [Musurmonova 1993: 14]. Bu fikr ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslari uchun badiiy asar tanlash ishlariga to'g'ri yo'nalish bera oladi. O'quvchilar ana shunday matnlar asosida o'zbekni, o'zbek xalqini, uning milliy ma'naviyati va qadriyatlarini, ayni paytda xulq-atvorini tushunish va bularga hurmat bilan qarash mazmunida tarbiya topadilar. O. Musurmonova o'zbek maktablarining adabiyot darslaridagi kamchiliklar haqida gapirib, shunday deydi: "...o'quvchilarga dars berish jarayonida turli tushunchalar haqida bilim beriladi-yu, lekin burch, nomus, muhabbat, do'stlik, yaxshilik, qabohat, adolat, shaxsiyatparastlik, faxr, uyat, g'arazgo'ylik, insonparvarlik, erk, ozodlik, baxt va baxtsizlik, ularning mohiyati haqida juda kam suhbatlashiladi" [Musurmonova 1993: 16]. P. Ravshanov, N. Mirqurbonovlar quyidagi axloqiy tushunchalarga e'tibor qaratadilar: "Adolat, elparvarlik, vatan, ilm-fan, mehnat, hunar, ota-ona, ayollarga munosabat, ustozu shogird, kamtarlik, teng ko'rish, saxovat, to'g'ri so'zlik, rostgo'ylik, ishq, vafo, himmat, samara, do'stlik, kayfiyat, takallum, mehmonnavozlik, hayo, odob, poklik, xotirlash, badbinlik, zolimlik, manmanlik, shuhrat, ichish, mastlik, qarilik, holni bilish, mansab, nafs, baxillik, ta'ma, xudbinlik" [Ravshanov 1991: 107].

Ushbu tushunchalar ham barkamol avlodni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O. Musurmonova, P. Ravshanov, N. Mirqurbonovlar tilga olgan axloqiy tushunchalarni to'liq deb bo'lmaydi. Ularning to'liq ro'yxati tuzilmagan ham. Masalan, yuqoridagilardan tashqari, do'stga sadoqat, do'st-dushmanning kimligini farqlash, farosatlilik, ezgulik va yovuzlik, ular o'rtasidagi kurash, go'zallik, olijanoblik, suhbatdagi tabiiylik va samimiylik, bolalarga xos beg'ubor his-tuyg'ular, saxiylik, mehribonlik, mehr-muruvvatlilik, bag'rikenglik, ma'rifatga chanqoqlik, odillik, pokiza qalblilik, onani qo'msash, uni sog'inish, yolg'on so'zlik, qanoatlilik, mehnatsevarlik, halollik, mardlik, jasurlik kabi ko'pgina axloqiy tushunchalar mavjudligini eslatishning o'zi kifoya. XX asr o'zbek adabiyotini o'qitish mazmunini belgilashda adabiy tayyorgarlikni ko'zda tutgan holda asar tanlash ishlarini amalga oshirish, buning uchun bugungi kunda jamiyatimiz tomonidan e'tirof etilgan badiiy yuksak parchalarni ajratish, bunda asarning hajmi, notanish so'zlarining miqdori, unda so'z qo'llanishi, tanlanadigan parchaning mavzu va janr rang-barangligiga erishish darkor. Adabiy materiallar janr va uslub jihatdan ham ko'rib chiqilishi lozim. Nasriy asarlarni tanlash bir qadar qiyinchilik uyg'otsa, she'riy asarlarni tanlash undan ham mashaqqatlidir. Shunga qaramay, she'riy asarlar ta'lim mazmuniga juda erta kiritiladi. Ularning estetik qadriyatlarga boyligi, ritmika va ohangni o'rgatish uchun qulayligi shunga imkon beradi. Ayrim she'rlarda rivoyalash ham mavjud bo'lgani uchun mazmunini tushunishda birmuncha osonlik tug'diradi. Nasriy asarlarni o'rganishning ahamiyati haqida metodist olim D. D. Islomova bunday yozadi: "Nasriy asarlar o'quv matnlariga qaraganda ham o'zbek tilini, ham adabiyotini, ham milliy qadriyatlarini o'rganishda mazmunli, ta'sirchan vosita sanalib, o'quvchilar qalbiga yo'l topa oladi" [Islomova 2007: 15]. Aslida ham shunday.

D.D. Islomova o'zbek tilida o'rganish uchun tanlanadigan nasriy asarlarning quyidagi muammoli jihatlariga e'tiborni qaratadi: "O'zbek tilidagi badiiy asar ba'zan o'quvchilarning odatdagi tasavvurlariga mos kelmaydi, chunki unda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, qahramonlarning xarakter xususiyatlari bir tomondan milliy qadriyatlar va milliy ma'naviyat bilan, ikkinchi tomondan esa umuminsoniy xislatlar bilan bog'liq bo'ladi. Ana shunday badiiy obrazli asarlardan olingan parchalarni o'qib-o'rganish bu asarlarning g'oyaviy-estetik jihatlarini, qurilishi, til xususiyatlarini tadqiq etish, shu asnodda qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishish mazmunida kechadi. Ayniqsa, yirik asardan keltirilgan parchaning qurilishi bilan bog'liq qiyinchiliklar oldindan bartaraf etilmas ekan yoki bu qiyinchiliklarga qisman barham beradigan qo'shimcha ma'lumotlar (izohlar, sharhlar) berilmas ekan, ba'zan o'qituvchining ushbu mushkulliklarni keltirib chiqargan sabablarni bilmasdan turib qiladigan sa'y-harakatlari besamar ketishi, ya'ni shu orqali erishiladigan natijalar yo'qqa chiqishi mumkin" [Islomova 2007: 16]. Asar, eng avvalo, ta'sirchan bo'lishi, ya'ni o'quvchiga (kitobxonga) zavq bag'ishlashi darkor. Atoqli olim Ozod Sharofidinov: "Mavzuning dolzarbligi, g'oyaning salmoqdorligi, muammoning hayotiyliги nechog'lik muhim bo'lmasin, badiiy asar qimmatini belgilaydigan yagona omil bo'lolmaydi. Chunki asar o'quvchining ongigagina emas, balki qalbiga ta'sir qilishi, 'sehr-jodu' bilan uni o'ziga asir qilib olishi kerak", – deb ta'kidlaydi.

Xullas, badiiy asarning qimmati ko'p jihatdan uning haqqoniyliги va ta'sirchanligiga bog'liq. Lekin ta'sirchanlik o'lchovlariga nimalar kirishini ham qat'iy lashtirib olish zarur. Ta'sirchanlik, Izzat Sultonning ta'kidlashicha, ikki omilga:

- 1) asar tilining shiradorligiga;
- 2) asar mazmuniga ko'ra aniqlanadi.

Yuksak badiiy qimmat tushunchasiga ko'ra tesha tegmagan, umuman asarda kutilmagan, ohori to'kilmagan so'zlar va til vositalari ishlatilishi kerak. Lekin, Izzat Sultonning yana bir ta'kidini inobatga oladigan bo'lsak, "Yozuvchining tili o'zining rango-rang va boyligi bilan ajralib turgan holda, ayni paytda hamma uchun tushunarli bo'lishi ham kerak" [Izzat Sulton 1980: 226]. Umuman, ta'lim mazmuni uchun zamon o'tishi bilan badiiyliги "o'zgarib" qolmaydigan asarlar tanlanishi lozim.



O'zbek adabiyoti darslarida o'rganish uchun qaysi asarlarni tanlash zarur degan masalaga quyidagilar nuqtai nazaridan yondashgan holda javob topish mumkin:

- asar yoki asardan tanlangan parcha o'quvchi uchun hayot saboqlarini berishi;
- uni milliy ma'naviyat bilan tanishtirishi;
- milliy qadriyatlardan voqif etishi;
- o'zbek xalqiga xos urf-odatlarini aks ettirishi;
- o'zbek xalqi udumlari bilan tanishtirishi;
- milliy an'analardan xabardor etishi;
- o'zbek xalqining orzu-o'ylariga oshno etishi;
- o'zbek xalqining ruhiyatiga olib kirishi;
- o'zbek xalqining o'tmishi va bugungi kuni haqida hikoya qilishi.

Qaysi asarning badiiy jihatdan pishiq yoki bo'sh ekanligi, yaxshi yoki "yengil asar" [Husanboeva 2009: 193] sanalishini o'zbek tili o'qituvchisi bilmaydi, degan fikrdan yiroqmiz. Amaldagi "O'zbek adabiyoti" darsliklariga kiritilgan adabiy asarlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mualliflar she'riy va nasriy asarlar tanlashda ularning badiiy qiymatiga e'tibor berishga harakat qilganlar. Darsliklarda Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Hamid Olimjon, Zulfiya va boshqa shoirlarning she'rlari, Oybek, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, O'tkir Hoshimov kabi yozuvchilarning nasriy asarlaridan parchalar berilgan.

Ma'lumki, badiiy qiymati bo'lmagan, sayoz she'riy va nasriy asarlar o'quvchilarning o'qish texnikasini egallash, ya'ni matnini o'qib mazmunini osonlik bilan tushunishlari uchun imkon beradi, shu jihati bilan ularni qanoatlantiradi. Lekin adabiy matn mazmunini tushunish uchungina o'qilmaydi. Metodik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, yuqori sinflarda eng muvaffaqiyatli suratda egallangan so'z boyligida ham har qanday badiiy matnda 10-15 foiz o'rganilmagan so'z qoladi. Bu miqdor L.A. Gaydarova ko'rsatgan optimal rejimdan (prozaik asarlar uchun 4-5 foiz yangi so'z, she'riy asarlar uchun 2,5 foiz yangi so'z) ortib ketadi. Asarda notanish so'zlarning ko'pligi ba'zan uning mazmunini tushunishda qiyinchilik tug'diradi. Biroq bunday holatni quyidagilarga tayanib osonlashtirish mumkin:

- 1) ma'lum so'zlar ma'nosini kontekstual anglash imkoniyatiga tayanish;
- 2) so'zlar matnning asosiy mazmuni bilan bog'liq bo'lmagan o'rinlarda so'z tarkibi orqali tushunish;
- 3) badiiy asar tanlashda lisoniy qiyinchiliklarning bu jihatlarini ham inobatga olish. Nasriy asarlardagi so'zlar ma'nosi kontekst orqali tushuniladi.

L.I. Timofeev lirikada so'zning alohida ahamiyat kasb etishiga diqqat qaratgan. Uning fikricha: "Lirikada so'z shunday ifodalilik darajasiga yetkaziladiki, kechinmalar ko'z oldimizda jonli insoniy tuyg'ulardek namoyon bo'ladigan aniq hayotiy faktga aylanadi" [Timofeev 1958: 409]. O'z-o'zidan ravshanki, she'r tanlashda ifodalilik darajasi kuchli so'zlar mavjud yoki yo'qligiga qaraladi, shunday so'zlari mavjud asarlarga ustunlik beriladi. Lirik she'rda tanish so'zlarning g'ayrioddiy va yangi ma'no qirralari ochiladi. She'rning kichik hajmi ma'lum darajada yangi so'zlarni tushuntirishdan tashqari, tanish so'zlarning yangi jilolari ustida ishlash imkonini ham beradi. Asar tanlashda e'tibor berilishi kerak bo'lgan yana bir muhim jihat esa uning ta'sirchan bo'lishi, ya'ni o'quvchiga zavq bag'ishlashidir. Atoqli olim Ozod Sharofiddinov: "Mavzuning dolzarbligi, g'oyaning salmoqdorligi, muammoning hayotiyliigi nechog'lik muhim bo'lmasin, badiiy asar qimmatini belgilaydigan yagona omil bo'lolmaydi. Chunki asar o'quvchining ongigagina emas, balki qalbiga ta'sir qilishi, 'sehr-jodu' bilan uni o'ziga asir qilib olishi kerak", – deb ta'kidlaydi.

5-sinf adabiyot darsligida Anvar Obidjonning:

Tun pardasi ochilar asta,
 Chiqib kelar sahnaga quyosh.
 Kelinchakdek bo'lib orasta,
 Gul salomdan ko'taradi bosh.
 Hovli go'yo yuvilgan chinni,
 Yo'llar go'yo artilgan oynak,
 Qutlash uchun yangi bu kunni,
 El oyoqqa turar jonsarak...

misralari bilan boshlanuvchi "Hayotning har lahzasi go'zal" nomli she'ri keltirilgan. Ushbu she'r mazmuni o'quvchilarni o'ziga rom qilmay qolmaydi. Chunki she'rda yangi bir kunning naqadar go'zal tarzda boshlanishi, har

bir kun yangi bir imkoniyat ekani, yangi kun nafaqat insonlarga, balki butun borliqqa yangi hayot bag'ishlashi shoirona topilmalar, bolalarcha soddalik bilan ifodalangan. Ushbu she'r har jihatdan 5-sinf o'quvchilari mutolaa qilishi uchun mos bo'la oladi. O'quvchilar asarning estetik ta'sirini yetarlicha his eta oladilar. Adabiyotda yuksak badiiy qimmat tushunchasiga ko'ra, tesha tegmagan, umuman asarda kutilmagan, ohori to'kilmagan so'zlar va til vositalari ishlatilishi kerak. Lekin Izzat Sultonning yana bir ta'kidini inobatga oladigan bo'lsak: "Yozuvchining tili o'zining rango-rang va boyligi bilan ajralib turgan holda, ayni paytda hamma uchun tushunarli bo'lishi ham kerak".

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi zamonaviy ta'limda adabiyot fani o'quvchilarni milliy hamda jahon adabiyotining nodir namularini mustaqil tushunish va tahlil qilishga o'rgatadi. Shu orqali o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, kitobxonlik madaniyatini, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosini, adabiy-estetik didini shakllantirish, ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, darslik uchun asar tanlanganda uning til jihatidan tushunarli bo'lishiga alohida ahamiyat beriladi. Agar bir xil ahamiyatga ega bo'lgan 2 ta asardan birini tanlash zarur bo'lsa, hajmi nisbatan kichikroq, tili hozirgi adabiy til normalariga yaqinroq asarlar afzal ko'riladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Islomova D.D. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari nasriy asarlarni o'rganish (rus guruhlarida): Ped. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2007. – 15-b.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 226-b.
3. Husanboeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 193-b.
4. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi (an'anaviylikdan zamonaviylikka). Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2020. – 37-b.
5. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. Adabiyot. – Toshkent, 2021.
6. Zunnunov A., Esonov J., Hotamov N., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 86-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.